JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING TUSHUNCHASI VA IJTIMOIY ZARURATI

Ashurov Nodir Nayimovich
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Ilmiy mutaxassisligi: 12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.15730714

Annotatsiya: Maqolada jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashning huquqiy va ijtimoiy zarurati atroflicha tahlil qilingan. Muallif jinoyat protsessi ishtirokchilarining tushunchasi, ularning huquqiy maqomi, shuningdek, xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy ahamiyati bo'yicha ilmiy bahslarni olib borgan. Protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirishda mavjud bo'lgan muammolarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish orqali, ularning xavfsizligini yanada yaxshilashga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi masalalarida amaldagi qonunchilik tizimidagi kamchiliklar va ular bo'yicha takomillashtirish zarurati ko'rib chiqilgan. Muallif, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashning yuridik jihatlari bilan birga, ijtimoiy zaruratini va uning jamiyat uchun ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. Bu jarayonda, mavjud qonunchilikni takomillashtirish va jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini yanada mustahkamlashga qaratilgan konkret takliflar ilgari surilgan.

Tayanch so'zlar: xavfsizlik, huquqiy xavfsizlik, shaxsiy daxlsizlik, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, boshqa shaxslar, dalillar.

"Har qanday jamiyatining barqaror rivojlanishi undagi "xavfsizlik" holatining ta'minlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun davlat va uning barcha tuzilmalarini asosiy vazifasi ijtimoiy xavfsizlikka bo'ladigan tahdidlarni aniqlash, ularni oldini olish, bartaraf etish, jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun munosib sharoitlarni yaratishdan iboratdir"[1].

Xavfsizlikni ta'minlash davlat organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, jamiyatning faravon yashashini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan xavfsizlikni ijtimoiy hodisa sifatida ilmiy tushunchasi, uning mohiyatini tahlil qilish talab etiladi.

Xavfsizlik haqidagi g'oyalar insoniyat bilan bir vaqtda paydo bo'lgan va ularning turli ijtimoiy guruhlarga birlashish jarayonida chuqurroq shakllandi.

Insonning har qanday tabiiy huquqi singari, xavfsizligi ham davlat tomonidan kafolatlanishi, himoya qilinishi va ta'minlanishi lozim.

Insoniyat jamiyatining dastlabki davrlarida qanday harakatni jinoyat deb hisoblash, buning uchun qanday jazo tayinlash kabi masalalar muayyan huquqiy

[1] Фомин А.А. Юридическая безопасность субъектов российского права: вопросы теории и практики: дис. ... д-ра юрид. наук. Пенза, 2007. С. 24.

normalar asosida emas, balki odat qoidalariga ko‘ra jabrlanuvchining qasos olishi asosida hal qilingan. Ammo insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlarida turli davlatlarda jinoyat va jazo masalalari ma’lum bir qoidalar asosida tartibga solingan. Xususan, Misr podsholarining qonunlari, Xammurapi qonunlari (Bobil), Manu qonunlari (Hindiston), Vey podsholigi qonunlar kitobi (Xitoy), Solon qonunlari (Afina), Rim qonunlari, Avesto ana shular jumlasidandir[2]. Albatta, ushbu qonunlar o‘z davri va o‘sha hududdagi aholi uchun eng maqbul huquq manbai hisoblanib, jinoyat va jazo masalalarini hal qilishda asos vazifasini bajargan hamda ularning tarixiy taraqqiyoti davomida zamonaviy huquq tizimining shakllanishiga xizmat qildi.

“Xavfsizlik” tushunchasi - xavfsizlikka oid tadqiqotlarning ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etuvchi asosiy kategoriyasidir. “Xavfsizlikka oid ijtimoiy munosabatlar”, “xavf” va “tahdid”, “xavfsizlik obyekti va subyekti”, “xavfsizlik sohalari”, “xavfsizlik darajalari” va “xavfsizlik tizimi” kabi xavfsizlik masalalariga bevosita aloqador bo‘lgan boshqa tushunchalarning mazmun va mohiyatini anglab yetishda mazkur murakkab ijtimoiy hodisaning nazariy konseptual jihatlarini tadqiq qilish muhim hisoblanadi”[3]. Shaxs xavfsizligini ta’minlash tushunchasini turli ko‘rinishlarda tahlil qilish mumkin, ya’ni xavfsizlik tushunchasining turli xil semantik, legal, doktrinal va qiyosiy ma’nolari bor. “Xavfsizlik semantik jihatdan himoya, to‘siq, vositalari yoki qandaydir xavfdan, yomon narsadan, harakatdan himoyalanish tadbirlari ma’nosini anglatadi”[4]. Xavfsizlik tushunchasining legal va doktrinal ma’nolari bu borada qabul qilingan yigirmadan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda berilgan. Xavfsizlik qiyosan “jazo”, “qo‘riqlash”, “himoya” so‘zlari bilan taqqoslanadi. Xavfsizlik chorasini qo‘llash uchun asos xavf solayotgan shaxsning mavjudligi bo‘lsa, jazo qo‘llash uchun ijtimoiy xavfli qilmishning qonunga xilofligi asos bo‘ladi.

Fikrimizcha, xavfsizlik va himoya tushunchalari ham ma’no jihatidan bir biriga yaqin, lekin xavfsizlik bu birinchi navbatda holat, taassurot, kechinma, himoya esa jarayondir. Demak, himoyani xavfsizlikka erishishning bir vositasi deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ijtimoiy voqelikning ayrim obyektlarini xavfsizlik holatiga erishish zarurati turli shakldagi xavfsizlik yo‘nalishlarini ishlab chiqishga va ularni normativ-huquqiy hujjatlarda birlashtirishga olib keladi.

Amaldagi qonunchilik va ilmiy adabiyotlarning tahlili xavfsizlikning yagona tushunchasi mavjud emasligi haqida xulosaga kelishimizga asos bo‘lmoqda. Ushbu hodisa ko‘p qirrali, turli xil ifoda shakllariga ega bo‘lib, xavfsizlik turlarini o‘rganish davomida mualliflar ushbu hodisaning o‘ziga xos xususiyatlarini

[2] Odilqoriyev H.T. Davlat va huquq tarixi. IIV Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013, - 380-bet. 29
[3] Бобоқулов И.И. “Миллий хавфсизлик” тушунчасининг концептуал таҳлили. http://journal.dba.uz
[4] Большой юридический словарь. Электрон ресурс:http://slo-vari.yandex.ru

aniqlagan. Bu esa xavfsizlik atamasini idrok etishning ma'lum bir konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan mualliflar o'zlarining huquqiy ta'riflarida xavfsizlik tushunchasi asosida: "xavfning yo'qligi", "xavfsizlik", "xavfsizlik holati", "himoya", "davlat organlarining faoliyati", "muvaffaqiyatli yoki barqaror rivojlanish sharti" va "ma'lum bir holat" kabi turli holatlarni o'rganadilar.

Hozirgi vaqtda xavfsizlik tobora ko'proq normativ-huquqiy timsolga, ya'ni amaldagi qonunchilikda yaxlit tizimga aylanib, mavhum toifadan ijtimoiy-huquqiy hodisaga aylanib bormoqda.

S.I. Ojegov "xavfsizlik" tushunchasini xavf yoki xavfdan himoya qilinmaydigan holat, "xavf" ortida "juda yomon narsaning tahdidi"[5] sifatida ta'riflangan bo'lsa, V.I.Dal esa xavfsizlikni "xavfning yo'qligi, xavfsizlik, ishonchlilik"[6] deya ta'riflaydi.

Fikrimizcha, xavfsizlikni hech qanday xavf mavjud bo'lmagan vaziyat sifatida tushunish uning mazmuni biroz toraytiradi. To'liq xavfsizlik holatining mavjudligi yoki ta'minlanganligi prinsipial jihatdan imkonsizdir. Shu bois, har qanday jamiyat va davlatda xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan doimiy ehtiyoj mavjud bo'ladi. Shu jumladan, jinoyat protsessida ham uning ishtirokchilari uchun har qanday bosqichda turli tahdid va xavflar paydo bo'lishi tabiiy bir holatdir.

Xavfsizlikni "xavfsizlik holati" deb hisoblaydigan yondashuv ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan. "Xavfsizlik"ni shaxsni, jamiyatni va davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish Milliy xavfsizlik strategiyasida mustahkamlangan"[7]. Shuni ta'kidlash lozimki, jinoyat-protsessual adabiyotlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi ham "xavfsizlik holati" nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. "Xavfsizlik" toifasiga oid munozarali masalalar mavjud bo'lib, ular deyarli noaniq hisoblanadi. Ushbu masala turli xil tarkibga ega bo'lishi mumkin va aniqlashni talab qiladi.

B.T.Xamxoyev "xavfsizlik"ni "maqsadga muvofiq faoliyat natijasida erishiladigan obyektning muayyan holati" deb ta'kidlagan bo'lsa[8], A.A.Proxojev "xavfsizlik"ni "obyekt yoki tizimning (tabiat, inson, jamiyat, davlat va boshqa) salbiy omillar ta'siri ostida o'z sifat ko'rsatkichlari va vazifalarini bajarish imkoniyatini saqlab qolish qobiliyati"[9] deya hisoblaydi. Obyektning o'z sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish qobiliyati tahdid va xavf-xatarlarning oldini olish, qaytarish, yo'q qilish uchun nafaqat o'zi, balki boshqa shaxsning kuchlari,

[5] Ожегов С.И., Шведова Н.И. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений. Российская академия наук. Институт русского языка им. В.В. Виноградова. 4-е изд., доп. М., 2006. С. 41.

[6] Даль В.И. Толковый словарь русского языка. Иллюстрированное издание. М.: ЭКСМО, 2010. С. 87.

[7] Электрон манба: https://lex.uz/ru/docs/5491626?ONDATE=25.10.2024. Мурожаат қилинган сана: 14.03.2025-йил

[8] Хамхоев Б.Т. Генезис формирования понимания сущности общественной безопасности // Вестник Московского университета МВД России. 2010. № 8. С. 178.

[9] Прохожев А.А. Теория развития и безопасности человека и общества. М., 2006. С. 20.

vositalari va faoliyati tufayli ham imkonlidir. Bunga mansabdor shaxslar va dastlabki tergovni olib boruvchi organlar faoliyatini misol qilish mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksining 375-moddasiga binoan, “jabrlanuvchilar, guvohlar, xolislar va protsessning boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash maqsadida, tergov harakatlari bayonnomasining kirish qismlari tanishib chiqish uchun taqdim qilinmasligi mumkin. Bunday hollarda bayonnomalarning ko‘rsatib o‘tilgan protsess ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kirish qismlari muhrlangan holda saqlanadi”[10].

Bundan tashqari, sud majlisiga chaqirilishi lozim bo‘lgan shaxslarning ro‘yxatida protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash maqsadida, ularning taxalluslari ko‘rsatilishi mumkin. Xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessida ham taxalluslarni ko‘rsatish amaliyotidan keng foydalaniladi (bu haqda tadqiqotning keyingi boblarida batafsil fikr yuritiladi). Jumladan, “taxallus ostida, jinoyat protsessida yashirin tarzda ishtirok etayotgan va sud zalida hozir bo‘lmagan jabrlanuvchi bilan telefon orqali bog‘lanish yoki uning fikri yozma ravishda olinishi mumkin”[11].

Shunday qilib, xavfsizlik – bu xavfli (zararli) ta’sirlar sharoitida uning xususiyatlari va funksiyalarini saqlab qolish hamda ushbu obyektning o‘z kuchlari va vositalari yoki boshqa shaxs(lar)ning faoliyati orqali erishish bilan tavsiflangan obyektning ma’lum bir holati hisoblanadi. “Holat” “kimdir yoki biror narsa joylashgan vaziyat, tashqi yoki ichki sharoitlar” degan ma’noni anglatadi. Holatni ma’lum bir sharoit sifatida tushunsak, xavfsizlik statik holat bilan bog‘liq. Ammo har qanday holat u yoki bu yo‘nalishda, u yoki bu darajada o‘zgarishi mumkin”[12]. Shuning uchun xavfsizlik obyektning himoyalanganlik holatining ma’lum darajasi sifatida tavsiflanadi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyat protsessi ishtirokchisining hayoti va sog‘lig‘ini himoyalangan holatga erishish uchun “xavfsiz joyga vaqtincha joylashtirish kabi xavfsizlik chorasi nazarda tutilgan boshqa choralar bilan bir vaqtda qo‘llanilsa, unda obyektning xavfsizlik holati darajasi oshadi”[13].

Xavfsizlikni “davlat organlari faoliyati”; “muvaffaqiyatli yoki barqaror rivojlanish sharti” deb hisoblaydigan yondashuvlar ham e’tiborga loyiqdir.

V.V.Serebryannikov va A.T.Xlopev “zarar yetkazishi, omon qolish va rivojlanishni imkonsiz qilishi, shuningdek asosiy moddiy va ma’naviy qadriyatlardan mahrum qilishi mumkin bo‘lgan xavf va tahdidlarni aniqlash, oldini olish va yo‘q qilish bo‘yicha amalga oshirilgan shaxs, jamiyat va davlat faoliyatiga murojaat qilishadi”[14].

---

[10] Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 375-моддаси. https://lex.uz/acts/111460. Мурожаат қилинган сана: 22.01.2025-йил

[11] Брусницын Л.В. Обеспечение безопасности потерпевшего и свидетеля в суде. // Уголовный процесс. -2009. -№3. -С.25.

[12] Ожегов С.И., Шведова Н.И. Указ. соч. С. 751.

[13] O‘zbekiston Respublikasi “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasi. https://nrm.uz/contentf?doc=575449. Kirilgan sana: 104.2024-yil

[14] Серебрянников В., Хлопьев А. Социальная безопасность России / под общ. ред. В.Н. Иванова, Р.Г. Яновского. М., 1996. С. 16.

Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bir vaqtning o‘zida alohida shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga nisbatan xavf manbai bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, dastlabki tergov paytida, agar tergovchi guvohning manfaatdor shaxslar tomonidan unga qarshi qilingan tahdidlar to‘g‘risidagi murojaatini hisobga olmasa, guvohga zarar yetkazilishi mumkin. Xavfsizlik choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi protsessual qaror qabul qilinishi bilan birga tergovchi tomonidan kasbiy vazifalarni vijdonan bajarish jinoyat protsessida ko‘rsatilgan ishtirokchining xavfsizligini ta’minlashga olib keladi.

N.D.Kazakov xavfsizlikni “jamiyat va uning fuqarolarining barqaror rivojlanish imkoniyatini kafolatlaydigan davlat mavjudligi uchun bunday ichki va tashqi sharoitlarni ta’minlash uchun ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bo‘yicha salbiy ta’sirlar va faoliyatga nisbatan barqaror holat sifatida belgilaydi”[15].

A.V.Petryanin va O.A.Petryanina xavfsizlikni jamoatchilik bilan aloqalar holati deb hisoblab, ushbu holatni qonuniy kuchlar, vositalar to‘plami yordamida ta’minlash zarurligini ta’kidladilar[16].

“Xavfsizlik keng ma’noda ma’lum bir jamiyat fuqarolarini madaniyatli hayot, rivojlanish va o‘zini namoyon qilish uchun zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlashdir”[17].

V.S.Xomyakova “inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan jamoat xavfsizligi haqida so‘z yuritar ekan, uni jamiyatning barqaror rivojlanish omili deb hisoblaydi[18]. Shu bilan birga, barqaror rivojlanishni amalga oshirish xavfsizlik holatini nazarda tutadi”[19].

Xavfsizlikni tushunishga yuqoridagi yondashuvlarni xulosa qilar ekanmiz, shuni ta’kidlash lozimki, shaxs, jamiyat va davlat uchun muvaffaqiyatli yoki barqaror rivojlanish uchun sharoitlar aynan davlat va boshqa organlarning qonunga asoslangan va jamiyat, davlat va shaxslar xavfsizligini turli tahdid va xavflarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish orqali ta’minlashga qaratilgan faoliyati natijasida yaratiladi.

Ba’zi olimlar xavfsizlik hodisasini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganadilar.

---

[15] Казаков Н.Д. Безопасность и синергетика (опыт философского осмысления) // Безопасность. 1994. № 4 (20). С. 61-65.

[16] Петрянин А.В. Понятие безопасности: законодательно-доктринальные подходы // Вестник Нижегородской академии МВД России. 2013. № 21. С. 176.

[17] Чернявский Г.С. К вопросу исследования проблем безопасности России // Военная мысль. 1994. № 29. С. 29.

[18] Хомякова В.С. Диалектика безопасности и устойчивого развития // Информация и безопасность. 2007. Т. 10. № 1. С. 126.

[15] Ирошников Д.В. Государственная безопасность как правовая категория // Вестник РУДН. Сер.: Юридические науки. 2013. № 3. С. 37.

Tizimning xususiyatlari va funksiyalarining mavjudligi M.A.Leskovning xavfsizlik tushunchasida paydo bo‘ladi. “U xavfsizlikni muvozanat va tizimni maqbul chegaralarda ushlab turish uchun muhim parametrlarni saqlab qolish mumkin bo‘lgan holat bilan tavsiflangan murakkab o‘zini o‘zi boshqarish tizimi sifatida aniqlaydi”[20]. “Xavfsizlik hodisasi turli xil salbiy ta’sirlar ostida barqarorlikni saqlash uchun obyektlarning obyektiv tabiati namoyon bo‘lgan hollarda tizimning ma’lum bir xususiyati sifatida qaraladi”[21].

A.A.Fominning ta’kidlashicha, xavfsizlik keng ma’noda “tizim (element, manfaatlar)ning o‘z mohiyatini yo‘q qilishi yoki o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan omillar (tahdidlar)dan himoyalanganligidir”[22].

N.I.Kostyuchenko tomonidan berilgan ta’rifda “xavfsizlik” hodisasi davlat va jamiyat tizimining elementi, dialektika nuqtai nazaridan esa – ijtimoiy tizimning elementidir. Shu bilan birga, u tizimning xavfsizlik holatini ta’minlash uchun ushbu holatga erishishga imkon beradigan ma’lum bir harakatlarni amalga oshirish zarurligiga ham qo‘shiladi”[23].

Ayrim tadqiqotchilarning ushbu hodisaning mazmunini tashkil etuvchi xavfsizlikning tarkibiy elementlarini aniqlashga qaratilgan yondashuvlariga e’tibor qaratish lozim. V.L.Manilov “xavfsizlikning elementlari sifatida: tahdid, manfaat, ularga ta’sir o‘tkazuvchi omillar va ularni ta’minlash usullarini keltirib o‘tadi”[24].

A.I.Staxov huquqiy tizimda xavfsizlikni tahlil qilib, xavfsizlik tarkibining: “xavfsizlik subyekti, xavfsizlik obyekti va xavfsizlik tahdidlari” kabi elementlarini ko‘rsatadi”[25].

B.P.Kondrashov jamoat xavfsizligi masalalarini o‘rganib, quyidagi xavfsizlik elementlarini nazarda tutadi: “xavfsizlik obyektlari, xavfsizlikka tahdid soladigan holatlar; xavfsizlik subyektlari; xavfsizlik subyektlarining kuchlari va vositalari”[26]. V.V.Voynikov jinoyat protsessida xavfsizlikni hisobga olib, bu elementlar ro‘yxatini mufassal deb topadi[27]. M.A.Avdeyev xuddi shu tarzda jinoyat protsessi sohasida xavfsizlik tushunchasini tashkil etuvchi elementlarga nisbatan: “xavfsizlik obyektlari; xavfsizlikka tahdid soladigan holatlar; o‘z vakolatlari doirasida xavfsizlikning ma’lum bir turini ta’minlaydigan

[20] Лесков М.А. Гомеостатические процессы и теория безопасности // Безопасность. Информационный сборник. 1994. № 4 (20). С. 66.
[21] Рыбалкин Н.Н. Природа безопасности: автореф. дис. ... д-ра филос. наук. М., 2003. С. 18-19.
[22] Фомин А.А. Указ. соч. С. 31.
[23] Костюченко Н.И. Социальное явление «безопасность» как элемент, общая функция социальных систем и подсистемы национальной безопасности государства // Общество и право. 2017. № 3 (61). С. 208.
[24] Манилов В.Л. Теория и практика организации системы обеспечения национальной безопасности России: автореф. дис. ... д-ра полит. наук. М., 1995. С. 17.
[25] Стахов А.И. Безопасность в правовой системе Российской Федерации // Безопасность бизнеса. М.: Ю рист, 2006. № 1. С. 6
[26] Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства ее обеспечения. М., 1998. С. 6.
[27] Войников В.В. Указ. соч. С. 12.

subyektlar”ni ko‘rsatadi[28]. D.A.Voronov yuqorida keltirilgan elenmentlarni qisqartirgan holda obyekt (himoyalanayotgan narsa) va xavfsizlikka tahdid soluvchi ta’sirni ko‘rsatadi[29].

Ko‘rinib turibdiki, ko‘rib chiqilayotgan qismlar xavfsizlik hodisasining tarkibini tashkil etuvchi elementlarga tegishli bo‘lishi lozim. Xavfsizlik elementlarini o‘rganish, hodisani aniqroq tushunish, uning tavsifi va shu asosda konsepsiyani shakllantirish uchun zarurdir.

Fikrimizcha, xavfsizlik: xavfsizlik obyektlari, xavfsizlik subyektlari, xavfsizlikka tahdid va xavfsizlikni ta’minlash kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan ta’rif to‘g‘ri ko‘rinadi.

Xavfsizlikning asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi: “shaxs – uning huquq va erkinliklari, jamiyat – uning moddiy va ma’naviy qadriyatlari, davlat – uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi”.

Xavfsizlik subyektlari xavfsizlik bilan bog‘liq shaxslar va organlar bo‘lib, ushbu toifaga xavfsizlikni ta’minlaydigan va xavfsizligi ta’minlanadigan shaxslar va organlar kiradi.

Xavfsizlikka tahdidlarga turli shart-sharoitlar va omillar, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari va qadriyatlariga tahdid soladigan yoki solishi mumkin bo‘lgan muayyan harakatlar (harakatlar va kamchiliklar) kiradi.

Xavfsizlikni ta’minlash – tegishli subektlarning tahdid va xavf-xatarlarni aniqlash, oldini olish, kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan faoliyatidir. Falsafa, sotsiologiya, psixologiya, iqtisod, huquq va siyosatshunoslik kabi bilim sohalari vakillarining xavfsizlikni aniqlashga turli xil yondashuvlarni ko‘rib chiqib, biz hozirgacha doktrinaviy yoki qonunchilik darajasida yagona umumiy tushuncha ishlab chiqilmagan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Xavfsizlik hodisasining eng xarakterli xususiyatlarini umumlashtirib, quyidagi konsepsiyani shakllantirish mumkin: xavfsizlik turli xil obyektlarning xavfsizligi holati bilan tavsiflanadigan, o‘z sa’y-harakatlari va vositalari bilan yoki davlat organlari va mansabdor shaxslarning tahdid va xavf-xatarlarni aniqlash, oldini olish, bartaraf etish bo‘yicha qonunga asoslangan faoliyati bilan tavsiflanadigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsiy xavfsizlik insonning jamiyatdagi fuqarolik holatini har tomonlama himoya qilish va kafolatlash sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy (jamoat) xavfsizlik jamiyatni turli xarakterdagi tahdidlardan himoya qilish holati hisoblanadi.

G.V.Korjevning fikriga ko‘ra, xavfsizlikning asosiy turlari mulkiy (iqtisodiy) xavfsizlikni o‘z ichiga olishi lozim bo‘lib, bu milliy manfaatlar turli tahdidlardan himoya qilinishi ta’minlanadigan iqtisodiy holat sifatida tushuniladi.

[28]Авдеев М.А. Теоретические и правовые основы обеспечения личной и имущественной безопасности участников уголовного судопроизводства: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2009. С. 20.

[29] Воронов Д.А. Меры уголовно-процессуального принуждения как средства обеспечения безопасности участников уголовного судопроизводства: дис. ... канд. юрид. наук. Омск, 2008. С. 19.

Xavfsizlikni turlarga bo‘lib, qonun chiqaruvchi ularni huquqiy va boshqa choralar bilan himoya qilish zarurligini ta’kidlaydi. Barcha sanab o‘tilgan xavfsizlik turlari huquqiy tartibga solish shaklida tegishli huquqiy kafolatga ega bo‘lishi lozim. Huquqiy tarkibiy qism, batafsil huquqiy tavsif va qo‘llab-quvvatlashsiz xavfsizlik turlarining hech birini ta’minlash imkoni bo‘lmaydi. Birinchisining mavjudligi, shuningdek jamoatchilik bilan aloqalar sohasida har qanday yangi elementlarning kiritilishi ushbu elementlar va munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni ishlab chiqish va tasdiqlash bilan birga keladi. Aynan qonunlar orqali iqtisodiyot, siyosat va boshqa sohalarda, shu jumladan jinoyat-protsessual sohada xavfsizlik choralari va mexanizmlari belgilanadi. Shuning uchun huquqiy xavfsizlikni boshqa barcha xavfsizlik turlari orasida hal qiluvchi deb hisoblash mumkin. Ko‘pgina qonun mualliflarining fikricha, qonun ijodkorligi va huquq-tartibot xavfsizlikning barcha turlarini ta’minlashda asosiy tarkibiy qism, xavfsizlikning mustaqil turi huquqiy (yuridik) xavfsizlik sifatida ajratish lozim.

Huquqiy (yuridik) xavfsizlikni o‘rganish idrokning ma’lum bir tushunchasini shakllantirish va konsepsiyani ishlab chiqish uchun ushbu hodisaning asosiy xususiyatlarini, mazmuni va mohiyatini aniqlash zarurligini taqozo etadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, huquqshunoslikda mualliflar ikkala atamadan ham foydalanadilar: “huquqiy xavfsizlik” va “yuridik xavfsizlik”, ularning munosabatlarini aniqlashda birlik mavjud emas.

Yuridik xavfsizlik kengroq tushuncha bo‘lib, huquqiy xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish, sud va huquqni qo‘llash organlarining tegishli faoliyatini o‘z ichiga oladi[30].

Bu borada A.F.Galuzin qarama-qarshi pozitsiyani egallaydi, uning so‘zlariga ko‘ra, “huquqiy xavfsizlik” tushunchasi “yuridik xavfsizlik” tushunchasidan kengroq bo‘lib, qonunlar va huquqni muhofaza qilish hujjatlarida xavf-xatarlar sonini minimallashtirish maqsadiga erishish orqali uni oldindan belgilaydi”[31].

Aftidan A.A.Fominning fikri to‘g‘ri ko‘rinadi: O‘zbek tilining “huquqiy” va “yuridik” sifatlari, garchi ular ko‘p tilli bo‘lib ko‘rinsa-da, ular tomonidan belgilangan bir xil hajmdagi ta’riflarga ega. Binobarin, “huquqiy xavfsizlik” va “yuridik xavfsizlik” tushunchalari tengdir, chunki ular “huquq” so‘zidan va uning lotincha varianti “jure” dan olingan”[32].

B.V.Dreyshev huquqiy xavfsizlik tushunchasi yuridik adabiyotlarda ilmiy kategoriya sifatida mavjud emasligini ta’kidlab, undagi ikki jihatga e’tibor qaratadi. Birinchisi, huquqiy tizim xavfsizligini ta’minlash, boshqacha aytganda,

[30] Тер-Акопов А.А. Ю ридическая безопасность человека в Российской Федерации (основы концепции) // Государство и право. 2001. № 9. С. 13; Горшенков Г.Г. Ю ридическая безопасность как научная категория // Безопасность бизнеса. 2005. № 3. С. 25.

[31] Галузин А.Ф. Правовая безопасность как самостоятельный вид безопасности // Право и политика. 2008. № 2. С. 283.

[32] Фомин А.А. Указ. соч. С. 66.

huquqiy tizim xavfsizligi holatiga erishish hamda uni takomillashtirish va yanada rivojlantirishda ifodalanadi. Ikkinchisi, huquqiy tizim doirasidagi jamoatchilik munosabatlarini hayotning turli sohalarida: harbiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqalarda xavfsizlik choralari yordamida huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi. Aynan huquqiy xavfsizlik milliy manfaatlarni himoya qilishga olib keladi, bu ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish protsessida aks etadi, xavfsizlikning barcha turlariga vositachilik qiladi[33].

V.V.Mamonovning fikricha, huquqiy xavfsizlikni “davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan huquqiy tizimni qoidabuzarliklardan himoya qilish holati reglament chiqarish vakolatiga ega deb qarash lozim”[34].

B.V.Dreyshevaning yuqoridagi fikrlarini tahlil qilgan holda, V.V. Mamonov huquqiy xavfsizlikni huquqiy tizim xavfsizligi holati sifatida belgilash zarurligini ta’kidlaydi. Muallif huquqiy xavfsizlikni huquqiy tizim kategoriyasi o‘rtasidagi farqga e’tibor qaratadi. Uning fikriga ko‘ra, huquqiy tizim “ichki uyushgan va o‘zaro bog‘liq, ijtimoiy o‘xshash va oxir-oqibat umumiy maqsadlarga yo‘naltirilgan ma’lum bir jamiyatning huquqiy hodisalari majmui hisoblanadi. Ularning har biri huquqiy tartibga solishda yoki o‘z chegaralaridan tashqarida jamoatchilik munosabatlariga huquqiy ta’sir ko‘rsatishda o‘z rolini bajaradi”.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xavfsizlik choralariga quyidagicha mualliflik ta’rifini berish mumkin:

Xavfsizlik choralari – bu muayyan shaxs yoki uning oila a’zolarining hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki va shaxsiy xavfsizligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlarning oldini olish, bartaraf etish yoki kamaytirish maqsadida davlat organlari tomonidan qo‘llaniladigan kompleks tashkiliy-huquqiy, texnik va taktik tadbirlar majmui;

Huquqiy tizimning tarkibi huquq, sud va boshqa huquqiy amaliyot, qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish faoliyati, huquqiy mafkura, huquqiy hujjatlar majmui, shuningdek huquqiy munosabatlardan iborat. Holbuki, huquq tizimi uning ichki tuzilishidir.

Huquqiy tizimning tarkibiy elementlariga quyidagilar kiradi: qonun ustuvorligi; huquq sohasi; huquqning quyi sohasi; huquq instituti va quyi institut.

Shu boisdan huquqiy xavfsizlik tushunchasini belgilashda turkum huquqiy tizimdan foydalanish to‘g‘riroq bo‘ladi[35].

A.F.Galuzin nuqtai nazari bo‘yicha, huquqiy xavfsizlik keng ma’noda huquqiy tizimni, qonun va qonunchilik tizimini turli xil huquqiy tahdid va xavflardan himoya qilishni, shuningdek xavfsizlikning barcha turlarini (davlat,

[33] Дрейшев Б.В. Указ. соч. С.11-19.
[34] Мамонов В.В. Конституционные основы национальной безопасности Российской Федерации: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Саратов, 2004. С. 23.
[35] Мамонов В.В. Правовая безопасность Российской Федерации // Право и государство: теория и практика. 2005. № 2. С. 4.

iqtisodiy, ekologik va hokazo) ta’minlashning muayyan huquqiy vositalarini o‘z ichiga oladi. Tor ma’noda bu tahdid va xavf-xatarni qonun ijodkorligi jarayoni hamda huquqni qo‘llash jarayonida bartaraf etishdan iborat[36].

A.A.Ter-Akopov huquqiy xavfsizlikni mustaqil xavfsizlik turiga ajratib, uni “turli xil tahdidlarga huquqiy vositalar bilan qarshi turish mexanizmi, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan huquqiy himoya qilish holati” deb biladi[37].

G.G.Gorshenkov ham xuddi shunday pozitsiyani quvvatlab, huquqiy xavfsizlikni “shaxs, jamiyat va davlatning huquqiy himoyasi holati” deb hisoblaydi[38].

A.A.Fomin huquqiy xavfsizlikni ijtimoiy ta’minotning alohida turi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi: huquqiy sohada qonun orqali amalga oshiriladigan huquqiy qo‘llab-quvvatlash (qo‘riqlash, himoya qilish) choralari, vositalari va usullarining yig‘indisi; huquq subyektlarining huquqiy munosabatlar sohasiga kirishi munosabati bilan hayotiy muhim manfaatlarini huquqiy himoya qilinganlik (kafolatlanganlik) holati (holatlar, rejimlar va boshqalar)[39].

I.S.Lapayev huquqiy fanda “yuridik (huquqiy) xavfsizlik” tushunchasini ta’riflashda ikkita asosiy yondashuv mavjudligini haqli ravishda qayd etadi. Birinchisi, uni huquqiy tizimni himoya qilish holati deb hisoblaydi. Ikkinchisi huquq subyektlarining hayotiy manfaatlarini huquqiy himoya qilish (xavfsizlik, kafolat) holati, obyektiv yoki subyektiv xarakterdagi ichki va tashqi tahdidlarga huquqiy vositalar bilan qarshi turish qobiliyati sifatida ko‘radi[40]. Shuni qo‘shimcha qilish lozimki, huquqiy xavfsizlik turli sohalardagi (iqtisodiy, siyosiy, axborot, harbiy va boshqalar) jamoatchilik munosabatlarining xavfsizligi holati sifatida ham qaraladi[41].

Yuqorida aytib o‘tilgan huquq subyektlarining manfaatlariga nisbatan I.S.Lapayev ularning “tartibliligi” zarurligiga ishora qiladi, chunki ba’zi hollarda subyektlardan birining manfaati boshqasining manfaatiga zid keladi va bu holda huquq manfaatlar muvozanati, ularning tartibliligini tartibga soluvchi sifatida ishlaydi”[42].

Jinoyat ishini tergov qilish paytida jabrlanuvchining maqsadi o‘zining buzilgan huquqlarini tiklash, o‘ziga yetkazilgan ziyon o‘rnini qoplanilishini, jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va unga adolatli jazo tayinlash hisoblanadi. Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning maqsadi

[36] Галузин А.Ф. Правовая безопасность и ее принципы. СПб., 2008. С. 41.
[37] Тер-АкоповА.А. Указ. соч. С. 11-13.
[38] Горшенков Г.Г. Указ. соч. С. 23.
[39] Фомин А.А. Указ. соч. С. 58.
[40] Лапаев И.С. Категория «юридическая безопасность» в понятийном аппарате российской и зарубежной правовой науки // Современное право. 2012. № 2. С. 9-10. См.: *Дрейшев Б.В.* Указ.соч. С.11-19; *Шабуров А.С.* Правовая безопасность в системе национальной безопасности // Вестник Ю УРГУ. Серия: Право. 2015. Т. 15. № 3. С. 24-30.
[41] Дрейшев Б.В. Указ. соч. С.11-19; Шабуров А.С. Правовая безопасность в системе национальной безопасности // Вестник Ю УРГУ. Серия: Право. 2015. Т. 15. № 3. С. 24-30.
[42] ЛапаевИ.С. Указ. соч. С. 9-10

jabrlanuvchi, guvohlarni ta’qib qilish, dalillarni yo‘q qilish orqali haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qilish va javobgarlikdan qutilib qolishga erishish hisoblanadi. Buning uchun jinoyat protsessi ishtirokchilariga, jabrlanuvchiga, guvohga bosim o‘tkazilishi mumkin. Bunda, jinoyat-protsessual xavfsizlik choralarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi huquqiy munosabatlarni hamda tomonlarning manfaatlari o‘rtasidagi zarur muvozanatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizm hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida aytib o‘tilgan yondashuvlar huquqiy xavfsizlikni muayyan obyektlarni (huquqiy tizim, yuridik shaxslarning hayotiy manfaatlari, jamoatchilik bilan aloqalar) himoya qilish holati orqali ochib beradi. Huquqiy xavfsizlikning bu xususiyati umumiy xavfsizlikka o‘xshaydi. Ushbu holat yuridik (huquqiy) xavfsizlik umumiy xavfsizlikning bir turi ekanligi va shunga o‘xshash xususiyatlarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Umumiy xavfsizlik obyektning xavfsizlik holatini ma’lum darajasi bilan tavsiflanadi. Binobarin, huquqiy xavfsizlik huquq tizimini, huquq subyektlarining hayotiy manfaatlarini va turli sohalardagi jamoatchilik munosabatlarini himoya qilishda ma’lum darajaga ham ega. Huquq subyektlarining hayotiy manfaatlari deganda insonning tirik organizm sifatida mavjudligi, unga salbiy ta’sir etishga, qonunga xilof ravishgda yashash imkoniyatini cheklashga, hayotiga tahdid solishga olib keladigan tahdidlardan himoyalanishi tushuniladi[43].

Huquqiy tizimning huquq subyektlari hayotiy manfaatlari va jamoatchilik bilan munosabatlarni himoya qilishning zarur darajasiga “huquqiy himoya” va “xuquqiy muhofaza” kabi huquqiy qo‘llab-quvvatlash usullari orqali erishiladi. Yuridik adabiyotlarda ushbu toifalar aniq izohga ega emas. Ayrim mualliflar ularni aniqlaydilar, boshqalari “himoya”ni kengroq tushuncha sifatida belgilaydilar yoki uni o‘ziga xos tarkib bilan to‘ldiradilar[44]. Bundan ko‘rinadiki, huquqiy himoya va huquqiy muhofaza tushunchalariga o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan mustaqil huquqiy hodisalar sifatida qaralishi lozim.

Huquqiy himoya xuquq subyektlarining qonunga asoslangan, turli shakllarda, huquqiy vositalar yordamida amalga oshiriladigan, ularning huquqiy maqomini amalga oshirishga, xavfsizlik holatiga erishishga qaratilgan faoliyat sifatida tushuniladi. Muhofaza qilishni ta’minlashda ustuvorlik davlat organlari va vakolatga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarga tegishli. Biroq, davlat bilan bir qatorda, manfaatlariga daxldor bo‘lgan huquq subyektlarining o‘zi ham o‘z manfaatlarini himoya qiladi. Zero, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir”[45]. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari,

[43] Тер-Акопов А.А. Безопасность человека: социальные и правовые основы. М., 2005. С. 8.

[44] Амельчаков И.Ф., Прудникова С.А. Соотношение правовых категорий «охрана», «обеспечение», «защита» // Закон и право. 2001. № 5. С. 16-18.

[45] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasi. https://lex.uz/docs/6445145. Кирилган сана: 16.07.2024-йил

ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Jinoyat sodir etgan shaxsning ishdagi dalillar haqida bilish va ular bo‘yicha tortishish huquqi mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, shaxsni uning o‘zi bilmagan dalillarga asosan ayblash noto‘g‘ri[46]. Aynan jinoyat ishi materiallariga ega bo‘lishga bo‘lgan huquq jinoyat protsessida taraflarning tengligi va uni ishonchli ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu masala Yevropa Ittifoqi direktivasining 7-moddasida ham tartibga solingan[47]. Mazkur hujjat jinoyat sodir etgan shaxsning ish materiallaridan xabardor bo‘lish huquqini turlarga ajratgan: shaxs ushlangan vaqtdagi huquqi, ish materiallaridan voqif bo‘lishga qaratilgan umumiy huquq, shuningdek bu hujjatda shaxsning bu turdagi huquqlari cheklanishi mumkin bo‘lgan holatlar ham nazarda tutilgan. Shaxs ushlangan vaqtdagi ish materiallaridan xabardor bo‘lish huquqi to‘g‘risida Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi tushuntirish bergan. Unga ko‘ra shaxsga nisbatan uning jinoyat sodir etgani to‘g‘risida asosli gumonning o‘zi uni ushlash uchun zarur shart hisoblanadi va shuning uchun ba’zi holatlarda maxsus hujjatsiz ham majburlov chorasi qo‘llaniladi. Lekin ma’lum vaqtdan keyin esa shaxsning ozodligi cheklanganini oqlash uchun boshqa ishonchli asoslar qo‘llanilishi kerak[48]. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi ushlangan shaxslarga unga nisbatan qo‘yilayotgan gumonlar yuzasidan samarali tortishish imkoniyati berilishini talab qiladi[49]. Bunda ushlangan shaxs mas’ullardan guvohlarni eshitishni, unga qarshi ayblov uchun asos bo‘luvchi ish materiallaridan xabardor bo‘lishni talab qilishga haqli. Gumon qilinuvchining jinoyat sodir etgani to‘g‘risida asosli gumon mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yuzasidan shaxs tortishib, zarurat bo‘lsa o‘zining dalillarini ham taqdim etishga haqli. Qaysi dalillar gumon qilinuvchiga taqdim etilishi kerakligi masalasi turli davlatlarda turlicha hal etilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi qaroriga ko‘ra, “shaxs ushlanganda uning ish materiallari bilan tanishish huquqi juda zarur hollardagina cheklanishi mumkin”[50]. Masalan, boshqa shaxslar xavfsizligini ta’minlash yoki jamiyat manfaatlari yuzasidan. Umumiy qoida bo‘yicha, odatda jinoyat sodir etgan shaxs tergov nihoyasiga yetgachgina ish materiallari bilan to‘liq tanishib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Jinoyat protsessi sohasida uning ishtirokchilarini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa

[46]Chrisje Brants & Stijn Franken. The protection of fundamental human rights in criminal process. General report. p.9.https://www.utrechtlawreview.org/articles/abstract/10.18352/ulr.102/.

[47]Anneli Soo, PhD and Anna Pivaty, PhD. Access to the Case Materials in Pre-Trial Stages Critical Questions of Article 7 of Directive 2012/13/EU on the Right to Information in Criminal Proceedings. https://eucrim.eu/media/issue/pdf/eucrim_issue_2019-01.pdf#page=60

[48] ECtHR, 28 July 2005, Czarnecki v. Poland, Appl. no. 75112/01, para. 37

[49] ECtHR, 19 February 2009, A. and others v. the UK, Appl. no. 3455/05, para. 204

[50] 8. ECtHR, A. and others v. the UK, op. cit. (n. 9), para. 205

ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasiga muvofiq, himoya qilinuvchi shaxsning xavfsizlik choralarini qo‘llash haqidagi yozma arizasi asosida yoki uning yozma roziligi bilan, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan esa ular ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining, shuningdek vasiylik va homiylik organlari vakolatli vakillarining (ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari homiyligidan mahrum bo‘lgan taqdirda) yozma arizasi asosida yoxud ularning yozma roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun ularning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish tahdidi bo‘lgan guvohlar, jabrlanuvchilar xavfsizlik choralarini qo‘llash uchun tergovga qadar tekshiruv organiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga murojaat qilishadi. Jinoyat protsessi ishtirokchilarning manfaatlarini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasi qoidalarini qo‘llash orqali ta’minlanadi, unga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ichki ishlar organlariga ishda ishtirok etayotgan shaxslarning hayoti, salomatligi, sha’ni, qadr-qimmati va mol-mulki muhofaza qilinishini ta’minlovchi barcha zarur choralarni ko‘rish xususida yozma ravishda topshiriq berishga haqli bo‘lib, agar ishtirokchilarga qarshi xavfli jinoiy ta’sirlar amalga oshirilishi to‘g‘risida yetarli ma’lumot mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari qo‘llaniladi.

Himoya qilinuvchi shaxslarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida himoya choralarining qo‘llanilishi natijasida tahdid yoki xavf solayotgan shaxslarning bu haqda xabardor bo‘lishiga hamda ularga nisbatan kelgusida majburlov choralari yoki jinoiy jazo choralari qo‘llanilishi mumkinligidan qo‘rqib, protsess ishtirokchisiga ta’sir qilishni to‘xtatishi mumkin.

Huquqiy muhofaza qonunda turli huquqiy vositalar (xavfsizlik choralari, majburlash, sanksiyalar) mavjudligi orqali xavfli ta’sirlar (jinoyatlar, boshqa noqonuniy harakatlar) sodir etilishining oldini olishdan iborat.

Shunday qilib, har xil tahdid va xavf-xatarlarning oldini olish va yo‘q qilishga qaratilgan huquqiy himoya ham, huquqiy muhofaza ham yagona maqsadga – huquqiy tizimning, huquq subyektlarining hayotiy manfaatlari va jamoatchilik munosabatlarning himoyalanganlik holatiga yo‘naltirilgan. Huquqiy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish, bostirish va bartaraf etishga qaratilgan huquqiy ta’minotning ko‘rib chiqilgan usullari tadqiqotchilar tomonidan turli asoslarga ko‘ra tasniflanadi.

Huquqiy xavfsizlikka tahdidlarni ta’sir obyektiga qarab uch guruhga bo‘lish mumkin: huquqiy tizimga tahdidlar; huquq subyektlariga tahdidlar; jamiyatning turli sohalariga tahdidlar.

Huquqiy tizim uchun asosiy tahdidlarga quyidagilar kiradi: qonunchilikdagi ayrim normalarning nomukammalligi; zarur normativ-huquqiy hujjatlarning

yetishmasligi; qonunlarni sifatsiz nashr etilishi; protsessual va huquqiy nigilizm; qonunchilikda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini aks ettirmaslik[51].

Huquqiy tizimga tahdidlar: qonun ijodkorligi tahdidlariga (qonunlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va boshqa qonun osti hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalarga mos kelmasligi); talqin qilish va huquqni qo‘llash tahdidlariga (sud ixtiyoridan ortiqcha foydalanish); huquqini suiiste’mol qilish tahdidlariga bo‘linadi.

Huquq subyektlariga tahdidlar: shaxsga, jamiyatga va davlatga tahdidlarga bo‘linadi. Ijtimoiy voqelikning turli sohalariga tahdidlar: iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqalarga bo‘linadi[52].

Huquqiy xavfsizlikning mazmunini tahlil qilgan holda uning quyidagi ta’rifini shakllantirishimiz mumkin.

Huquqiy xavfsizlik-bu huquqiy tizimni, huquq subyektlarining hayotiy manfaatlarini, shuningdek turli tahdid va xavf-xatarlarning oldini olish, kamaytirish va yo‘q qilishga qaratilgan huquqiy himoya va huquqiy muhofaza kabi huquqiy qo‘llab-quvvatlash usullari orqali erishilgan ijtimoiy voqelikning turli sohalarini himoya qilish holati[53].

Huquqiy xavfsizlik umumiy xavfsizlik turlaridan biri bo‘lib, konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoiy, jinoiy-protsessual va boshqalarga (ijtimoiy munosabatlarning ayrim sohalarini tartibga soluvchi, ya’ni ularda xavfsizlikni ta’minlaydigan huquq sohalari mazmuniga qarab) tasniflanadi[54]. Jinoyat-protsessual xavfsizlik, huquqiy xavfsizlikning bir turi sifatida, unga va umumiy xavfsizlikka o‘xshash xususiyatlarga ega, ammo dissertatsiyaning keyingi paragrafida ko‘rib chiqiladigan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi.
3. Fomin A.A. Yu ridicheskaya bezopasnost sub’ektov rossiyskogo prava: voprosы teorii i praktiki: dis. ... d-ra yurid. nauk. Penza, 2007. S. 24.
4. Odilqoriyev H.T. Davlat va huquq tarixi. IIV Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013, - 380-bet. 29
5. Boboqulov I.I. “Milliy xavfsizlik” tushunchasining konseptual tahlili. http://journal.dba.uz
6. Dal V.I. Tolkovыy slovar russkogo yazыka. Illyustrirovannoe izdanie. M.: EKSMO, 2010. S. 87.

[51] Дрейшев Б.В. Указ. соч. С. 11-19.
[52] Шабуров А.С. Указ. соч. С. 25.
[53] Исаев А.Э. К вопросу о содержании правовой безопасности в уголовном судопроизводстве // Публичное и частное право. 2019. № 2 (42). С. 224-234.
[54] Фомин А.А. Указ. соч. С. 94.

7. Xamxoev B.T. Genezis formirovaniya ponimaniya suщnosti obщestvennoy bezopasnosti // Vestnik Moskovskogo universiteta MVD Rossii. 2010. № 8. S. 178.
8. Proxojev A.A. Teoriya razvitiya i bezopasnosti cheloveka i obщestva. M., 2006. S. 20.
9. Brusnisin L.V. Obespechenie bezopasnosti poterpevshego i svidetelya v sude. // Ugolovnыy protsess. -2009. -№3. -S.25.
10. O‘zbekiston Respublikasi “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasi. https://nrm.uz/contentf?doc=575449. Kirilgan sana: 104.2024-yil
11. Serebryannikov V., Xlopev A. Sotsialnaya bezopasnost Rossii / pod obщ. red. V.N. Ivanova, R.G. Yanovskogo. M., 1996. S. 16.
12. Kazakov N.D. Bezopasnost i sinergetika (opыt filosofskogo osmыsleniya) // Bezopasnost. 1994. № 4 (20). S. 61-65.
13. Petryanin A.V. Ponyatie bezopasnosti: zakonodatelno-doktrinalnыe podxodы // Vestnik Nijegorodskoy akademii MVD Rossii. 2013. № 21. S. 176.
14. Chernyavskiy G.S. K voprosu issledovaniya problem bezopasnosti Rossii // Voennaya mыsl. 1994. № 29. S. 29.
15. Xomyakova V.S. Dialektika bezopasnosti i ustoychivogo razvitiya // Informatsiya i bezopasnost. 2007. T. 10. № 1. S. 126.
16. Iroshnikov D.V. Gosudarstvennaya bezopasnost kak pravovaya kategoriya // Vestnik RUDN. Ser.: Yu ridicheskie nauki. 2013. № 3. S. 37.
17. Leskov M.A. Gomeostaticheskie protsessы i teoriya bezopasnosti // Bezopasnost. Informatsionnыy sbornik. 1994. № 4 (20). S. 66.
18. Ribalkin N.N. Priroda bezopasnosti: avtoref. dis. ... d-ra filos. nauk. M., 2003. S. 18-19.
19. Kostyuchenko N.I. Sotsialnoe yavlenie «bezopasnost» kak element, obщaya funksiya sotsialnыx sistem i podsistemы natsionalnoy bezopasnosti gosudarstva // Obщestvo i pravo. 2017. № 3 (61). S. 208.
20. Manilov V.L. Teoriya i praktika organizatsii sistemы obespecheniya natsionalnoy bezopasnosti Rossii: avtoref. dis. ... d-ra polit. nauk. M., 1995. S. 17.
21. Staxov A.I. Bezopasnost v pravovoy sisteme Rossiyskoy Federatsii // Bezopasnost biznesa. M.: Yu rist, 2006. № 1. S. 6
22. Kondrashov B.P. Obщestvennaya bezopasnost i administrativno-pravovыe sredstva yee obespecheniya. M., 1998. S. 6.

23. Avdeyev M.A. Teoreticheskie i pravovыe osnovы obespecheniya lichnoy i imuщestvennoy bezopasnosti uchastnikov ugolovnogo sudoproizvodstva: dis. ... kand. yurid. nauk. M., 2009. S. 20.
24. Voronov D.A. Merы ugolovno-protsessualnogo prinujdeniya kak sredstva obespecheniya bezopasnosti uchastnikov ugolovnogo sudoproizvodstva: dis. ... kand. yurid. nauk. Omsk, 2008. S. 19.